

Ilxamova Zumrad,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy tadqiqot instituti
Strategik tahlil va prognozlashtirish bo‘limi
kichik ilmiy xodimi
E-mail:zumrad.i@mail.ru



AHOLI TURMUSH DARAJASI VA IJTIMOY TABAQALANISHNI BAHOLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholining turmush darajasini o‘rganishda Statistika agentligining ma’lumotlariga asosan aholining umumiy daromadlari, aholi jonboshiga umumiy daromadlari, ijtimoiy transfertlar hamda ijtimoiy tabaqalanishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar: daromadlarning detsil va kvintil darajalari, ularning umumiy daromadlardagi ulushi tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье на основе данных агентства по статистике проанализированы показатели, отражающие совокупные доходы населения, совокупные доходы на душу населения, социальные трансферты и показатели характеризующие социальное расслоение: децильный и квинтильный уровни доходов.

Annotation. In this article, based on data from the statistics agency, indicators reflecting the total income of the population, total income per capita, social transfers and indicators characterizing social stratification are analyzed: decile and quintile income levels.

Tayanch so‘zlar: daromad, farovonlik, aholi, moddiy, davlat, mablag‘, turmush darajasi, transfert, detsil, kvintel.

Ключевые слова: доходы, благосостояние, население, материальное, государство, средства, уровень жизни, трансферты, дециль, квинтель.

Key words: income, well-being, population, material, state, funds, standard of living, transfer, decile, quintile.

*Amaliyotda xalqaro
tan olingan
ko'rsatkichlar
va bir qancha
iqtisodiy-matematik
usullardan
foydalanilsa-
da, hozirda
aholining turmush
darajasi sifatini
har tomonlama
tavsiflab
beradigan yagona
ko'rsatkichga
keltirish bo'yicha
samarali usul
mavjud emas.*

Kirish. Dunyo mamlakatlarida aholi turmush darajasi va farovonligi turli atamalar va tushunchalarda ifodalanadi. Umuman olganda, turmush darajasini o'rganishda aholining turli qatlamlari manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular o'rtasidagi har xil qarama-qarshiliklarni yumshatish, daromadlar bo'yicha keskin tabaqalanishga chek qo'yish va qashshoqlikni bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Aholi turmush darajasini barchamiz aholi jonboshiga to'g'ri keladigan daromadlar miqdori va iste'mol hajmi miqdorining ortishi yoki kamayishi bilan baholashga odatlanganmiz. Aholi turmush darajasi uning sifat ko'rsatkichlari kabi ancha keng tushuncha hisoblanadi.

Amaliyotda xalqaro tan olingan ko'rsatkichlar va bir qancha iqtisodiy-matematik usullardan foydalanilsa-da, hozirda aholining turmush darajasi sifatini har tomonlama tavsiflab beradigan yagona ko'rsatkichga keltirish bo'yicha samarali usul mavjud emas.

Maqsad va uni asoslash. Mamlakatning aholisi o'rtasida daromadlar tengsizligini tahlil qilish aholi turmush darajasi to'g'risidagi xulosalarni ham keltirib chiqaradi. Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda statistika agentligining ma'lumotlaridan, shuningdek, muntazam ravishda statistika organlari tomonidan o'tkazib boriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyati bo'yicha hamda uy xo'jaliklari daromadlari va xarajatlarini o'rganish bo'yicha tanlanma kuzatuv ma'lumotlaridan, bundan tashqari, Moliya vazirligi, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Markaziy bank, Xalq banki, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan aholiga hisoblangan daromadlar, ijtimoiy to'lovlar va soliq to'lovlari to'g'risidagi umumlashgan ma'lumotlardan foydalaniladi.

Aholi farovonligini ifodalashda jami aholining, oilalarning, alohida shaxslarning umumiy daromadlari muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga¹ ko'ra 2022-yilda aholining umumiy daromadlari 634,8 trln so'mni, aholi jonboshiga umumiy daromadlar 17,8 mln so'mni, aholi jonboshiga umumiy daromadlarning nominal o'sish sur'ati 119,8% ni tashkil etdi (1-rasm).

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari www.stat.uz



1-rasm. Aholining daromadlari.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'ngi 5 yil mobaynida mamlakatimizda aholi jonboshiga to'g'ri keluvchi umumiy daromadlar o'rta hisobda ikki baravar o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lib kelmoqda.

Aholi umumiy daromadlarining 70,2% ini birlamchi daromadlar tashkil qilgan bo'lsa, 29,8% i transfertlardan olingan daromadlar hissasiga to'g'ri keldi.

2022-yilda transfertlardan olingan daromadlarning 35,4% ini ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qilgan bo'lsa, 64,6% ini boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi.

Ijtimoiy transfertlar tarkibida pensiyalar eng ko'p ulushni – 71,8% ni tashkil qilgan bo'lsa, nafaqalar 26,4% ni, stipendiyalar 1,8% ni tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. Ijtimoiy transfertlar tarkibi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'ngi 5 yil mobaynida mamlakatimizda aholi jonboshiga to'g'ri keluvchi umumiy daromadlar o'rta hisobda ikki baravar o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lib kelmoqda. Aholi umumiy daromadlarining 70,2% ini birlamchi daromadlar tashkil qilgan bo'lsa, 29,8% i transfertlardan olingan daromadlar hissasiga to'g'ri keldi.

Aholi turmush darajasi deyilganda, aholining zarur moddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlangani, aholi iste'moli va ehtiyojlarining qondirilganlik darajasi tushuniladi. Aholi ehtiyojlarini qondirish darajasi esa ularning oladigan daromadlari darajasiga bog'liq.

2021-yilning mos davri ma'lumotlari bilan taqqoslaganda pensiyalarning o'sish sur'ati 122,4% ni, nafaqalarning o'sish sur'ati 172,5% ni va stipendiyalarning o'sish sur'ati 131,5% ni tashkil etdi.

2022-yilda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida jami 17,6 trln so'm miqdorida nafaqa va moddiy yordamlar ajratildi.

Shundan 35,2% i byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va 64,8% respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan.

Boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining nominal o'sish sur'ati 142,4% ni tashkil etdi. Aholining umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7% punktga ko'tarildi.

Ushbu daromadlarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlari nominal qiymatining 7,0% ga o'sishini ta'minlab berdi.

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi jonboshiga to'g'ri keladigan daromadlar, o'rtacha ish haqi, pensiya va ijtimoiy nafaqalar izchil ravishda o'sib bormoqda.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Aholi turmush darajasi deyilganda, aholining zarur moddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlangani, aholi iste'moli va ehtiyojlarining qondirilganlik darajasi tushuniladi. Aholi ehtiyojlarini qondirish darajasi esa ularning oladigan daromadlari darajasiga bog'liq.

Daromadlarning tabaqalanishiga, o'z navbatida, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va geografik omillar ta'sir etadi.

Daromadlar tabaqalanishini tahlil qilishda uy xo'jaliklarining umumiy va o'rtacha oylik daromadlari alohida hududlar va guruhlar bo'yicha o'rganiladi. Daromadlar tabaqalanishini o'rganishda aholi daromadlar hajmi bo'yicha guruhlanadi va ular asosida quyidagilar hisoblanadi:

1. Daromadning tarkibiy tabaqalanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar: daromadlarning detsil va kvintil darajalari (yuqori va quyi), ularning umumiy daromadlardagi ulushi, guruh bo'yicha o'rtacha daromad.

2. Daromadlarning tabaqalanish koeffitsiyenti: detsil koeffitsiyenti, fondlar koeffitsiyenti, Lorents va Jini koeffitsiyentlari. Aholi daromadlari tabaqalanishini o'rganish uchun aholi quyidagi usullarda guruhlarga ajratiladi: detsil guruhlari bo'yicha; kvintil guruhlari bo'yicha.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy tabaqalanishini baholash amaliyoti O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2010 yil 24 dekabrda «Uy xo'jaliklarini tadqiq etish metodologiyasining nizomi to'g'risida»gi 18-son qarori² asosida amalga oshiriladi.

Ushbu nizomga muvofiq, O'zbekistonda aholining ijtimoiy tabaqalanishini tavsiflash uchun aholining o'rtacha jonboshiga to'g'ri keluvchi pul daromadlari bo'yicha guruhlanishi, aholi jami pul daromadlari hajmining detsil va kvintil koeffitsiyentlari bo'yicha guruhlanishi, Djini koeffitsiyenti va fondlar koeffitsiyenti kabi indikatorlar (ko'rsatkichlar) tizimidan foydalaniladi.

Detsil koeffitsiyenti – 10 foiz yuqori darajada ta'minlanganlarning va 10 foiz kam ta'minlanganlarning maksimal daromadlari o'rtasidagi nisbat (3-rasm)



3-rasm. Aholi daromadlarini (10%) guruhlar bo'yicha differentsiatsiya koeffitsiyenti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlariga asosan detsil va kvintil koeffitsiyentlarini hisoblaganda 2022-yilda 7% ni tashkil etdi.

Ushbu koeffitsiyent yordamida esa eng boy aholining o'rtacha daromadi eng kambag'al aholining daromadidan necha marta yuqori ekanligi aniqlanadi.

Ammo aholi daromadlarini yaxshiroq tahlil qilish uchun tabaqalanish darajasini ham bilish lozim.

Daromadlar tabaqalanishini to'liq ifodalash uchun kvintillar orqali hisoblanuvchi Lorents va Jini koeffitsiyentlaridan foydalaniladi.

² «Uy xo'jaliklarini tadqiq etish metodologiyasining nizomi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2010 yil 24 dekabrda 18-son qarori

Ushbu nizomga muvofiq, O'zbekistonda aholining ijtimoiy tabaqalanishini tavsiflash uchun aholining o'rtacha jonboshiga to'g'ri keluvchi pul daromadlari bo'yicha guruhlanishi, aholi jami pul daromadlari hajmining detsil va kvintil koeffitsiyentlari bo'yicha guruhlanishi, Djini koeffitsiyenti va fondlar koeffitsiyenti kabi indikatorlar (ko'rsatkichlar) tizimidan foydalaniladi.

Kvintillarni hisoblash tartibi detsillar bilan bir xil, faqat qayta guruhlashda beshta teng guruhlar tuziladi.

Kvintillarning har biri umumiy aholining 20 foizini tashkil etuvchi guruhlar chegaralarini ifodalaydi. Ushbu chegaralar orqali har bir guruhda yalpi daromad ulushlarining kumulyativ qiymatlari hisoblanadi (4-rasm).

Kvintillarning har biri umumiy aholining 20 foizini tashkil etuvchi guruhlar chegaralarini ifodalaydi. Ushbu chegaralar orqali har bir guruhda yalpi daromad ulushlarining kumulyativ qiymatlari hisoblanadi.



4-rasm. O'zbekiston Respublikasi aholisi daromadlarini aholining 20 foizli guruhlar bo'yicha notekis taqsimlanishi.

Quyidagi Lorents egri chizig'ining yotiq chizig'ida aholi guruhlarining foizdagi ulushi, tik chizig'ida esa bu guruhlar tomonidan olinadigan daromadning foizdagi ulushi ifodalangan (5-rasm).



5-rasm. O'zbekiston Respublikasi aholisi daromadlarining notekis taqsimlanishi (Jini koeffitsiyenti)

Jini koeffitsienti quyidagi formula yordamida aniqlanadi: Lorents va Jini koeffitsiyentlarining qiymati 0 va 1 oralig'ida o'zgarib, ular qanchalik 1 ga yaqin bo'lsa, tabaqalanish darajasi shunchalik yuqori,

aksincha, qanchalik 0 ga yaqin bo'lsa, tenglik darajasi yuqori ekanligini anglatadi, shuningdek, 0 ga teng bo'lganda daromadlar mutlaq teng va 1 ga teng bo'lganda mutlaq noteng taqsimlangan bo'ladi.

Agar tabaqalanish darajasi juda yuqori bo'lsa, mamlakatda aholi boy va kambag'allarga ajralib qolganini yoki aksincha, tabaqalanish darajasi past bo'lishi esa mamlakat aholisi deyarli teng daromad oluvchilar ekanligini tushunish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bunday usulni qo'llash aholi turmush darajasini o'rganishda samarali hisoblanadi. Chunki aholi turmush darajasini statistik usulda tahlil qilish orqali quyidagi vazifalarni amalga oshirish mumkin bo'ladi:

- aholi farovonligining o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash;
- aholi turmush darajasi ko'rsatkichlarining tarkibi, dinamikasi va o'zgarish sur'atlarini kompleks o'rganish;
- aholining daromadlar jihatidan tabaqalanishi va unga turli ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'sirini tahlil etish;
- aholining moddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasini baholash va bu asosida aholi turmush darajasining umumiy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

Ammo mamlakatimiz miqyosida bu metodikani qo'llash uchun aholi daromatlari to'g'risida to'liqroq, ya'ni yuqori, o'rta va quyi daromad oluvchilar aholining qancha qismini tashkil etishi kabi rasmiy statistik ma'lumotlarga ega bo'lishimiz lozim bo'ladi.

Aholining ijtimoiy jihatdan tabaqalanishi har qanday mamlakat uchun xos bo'lgan xususiyat hisoblanib, uning o'ziga yarasha ijobiy va salbiy oqibatlari mavjud. Ijtimoiy jihatdan tabaqalanishning ijobiy xususiyati mamlakatda o'rta qatlamni rag'batlantirishga qaratilgan aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining amalga oshirilishi, bunda aktiv ijtimoiy himoya dasturlariga ustuvorlik berilishi natijasida jamiyatning ayrim ijtimoiy guruhlar o'rtasida raqobatning ortishiga erishiladi hamda mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligi ko'rsatkichi orta boradi. Ya'ni aholi daromatlari ortgani sari jamiyatning ijtimoiy qiyofasi takomillashib boradi.

Yakuniy qism. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda har bir mamlakatda aholining ijtimoiy jihatdan tabaqalanishining oldini olish, o'rta qatlamni rag'batlantirish va jamiyatning ijtimoiy qiyofasini takomillashtirish maqsadida aholini ijtimoiy himoya qilishning iqtisodiy mexanizm (soliq siyosati, ijtimoiy ta'minot va boshqalar)lari orqali jamiyatdagi ijtimoiy differentsiatsiyalashuv jarayonlari boshqarib boriladi. Bu esa o'z navbatida, har bir mamlakatda ijtimoiy tabaqalanish indikatorlari tizimining ishlab chiqilishini taqozo etadi.

Aholining ijtimoiy jihatdan tabaqalanishi har qanday mamlakat uchun xos bo'lgan xususiyat hisoblanib, uning o'ziga yarasha ijobiy va salbiy oqibatlari mavjud. Ijtimoiy jihatdan tabaqalanishning ijobiy xususiyati mamlakatda o'rta qatlamni rag'batlantirishga qaratilgan aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining amalga oshirilishi, bunda aktiv ijtimoiy himoya dasturlariga ustuvorlik berilishi natijasida jamiyatning ayrim ijtimoiy guruhlar o'rtasida raqobatning ortishiga erishiladi.

Xususan, yurtimizda amalga oshirilayotgan aholini ijtimoiy himoya qilishning aktiv dasturlari natijasida aholi daromadlari bazasi mustahkamlanib, yildan yilga aholi iste'mol xarajatlari tarkibi optimallashtirib, unda nooziq-ovqat va xizmatlarga qilinayotgan xarajatlarning ulushi ortib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, aholi jonboshiga to'g'ri keladigan daromad va xarajatlarning tarkibiy o'zgarishi, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanganligi bilan bir qatorda hududdagi yashash sharoiti va standartlari, aholining obod va zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlanganligi, aholi istiqomat qiladigan muhitni rivojlantirish va obodonlashtirish kabi omillarni ham inobatga olish va aholi uchun qulay yashash muhitini yaratishga e'tiborni kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari www.stat.uz.
2. Колмаков И.Б. Методология расчета и анализа интегральных оценок показателей поляризации денежных доходов населения // Вопросы статистики, 2015, № 2. – С. 23-36. <https://voprstat.elpub.ru/jour/article/view/>
3. Шамаева Е.Ф. Комплексная модель расчета качества жизни в регионе (на основе формализованного принципа устойчивого развития и системы естественнонаучных показателей). Уровень жизни населения регионов России, 2015. № 3 (197). – С. 109-120. <https://www.fnisc.ru/index>.
4. Козлова О., Гладкова Т., Макарова М., Тухтарова Е. Качества жизни населения: вопросы оценки // Экономист, 2015. № 8. – С. 80-87. <http://journal.asu.ru/ec/article/view/epb202227>
5. Глуценко К.П. К вопросу о применении коэффициента Джини и других показателей неравенства // Вопросы статистики, 2016. № 2. – С. 71-80. <https://voprstat.elpub.ru/jour/article/view/317>
6. Berg J. 2015. *Labour markets, institutions and inequality: Building just societies in the 21st century* (Geneva, ILO; Cheltenham, Edward, Elgar). pp. 1–38. https://www.ilo.org/global/publications/books/WCMS_314464/lang--en/index.htm